

UO'K: 338.2:330.341

HUDUDIY INVESTITSIYA SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VOSITALARI

Ergashev Alijon Hojimatovich

PhD, dotsent, Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqola O'zbekistondagi hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishning iqtisodiy asoslari va mexanizmlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda hududiy rivojlanish va investitsiya faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, hududlar iqtisodiyoti samaradorligini oshirish yo'llari, shuningdek, investitsion resurslarni jalb etish va samarali taqsimlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Ishda hududlar bo'yicha investitsion siyosatni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi, hududiy investitsion imkoniyatlarni kuchaytirishning samarali iqtisodiy mexanizmlari tavsiya etiladi. Tadqiqot natijalari hududlar iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirish va mamlakatning umumiy investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *hududiy rivojlanish, investitsion jozibadorlik, iqtisodiy mexanizmlar, investitsiya siyosati, hududiy investitsiyalar, investitsion resurslar.*

Annotation: *This article is dedicated to studying the economic foundations and mechanisms for enhancing the investment attractiveness of regions in Uzbekistan. The research analyzes the interconnection between regional development and investment activities, ways to improve the efficiency of regional economies, as well as mechanisms for attracting and effectively allocating investment resources. The study examines both theoretical and practical aspects of forming regional investment policies and provides recommendations for effective economic mechanisms to strengthen regional investment potential. The results of the research contribute to stimulating regional economic development and increasing the overall investment attractiveness of the country.*

Keywords: *regional development, investment attractiveness, economic mechanisms, investment policy, regional investments, investment resources.*

Аннотация: *Данная статья посвящена изучению экономических основ и механизмов повышения инвестиционной привлекательности регионов Узбекистана. В исследовании анализируется взаимосвязь между региональным развитием и инвестиционной деятельностью, пути повышения эффективности региональных экономик, а также механизмы привлечения и эффективного распределения инвестиционных ресурсов. Работа рассматривает теоретические и практические аспекты формирования региональной инвестиционной политики и предлагает рекомендации по эффективным экономическим механизмам укрепления инвестиционного потенциала регионов. Результаты исследования способствуют стимулированию экономического развития регионов и повышению общей инвестиционной привлекательности страны.*

Ключевые слова: *региональное развитие, инвестиционная привлекательность, экономические механизмы, инвестиционная политика, региональные инвестиции, инвестиционные ресурсы.*

KIRISH

Hududiy investitsiya siyosati va hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish masalalari zamonaviy iqtisodiyotda dolzarb va muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Har bir hududning iqtisodiy salohiyati, infratuzilmasi, tabiiy resurslari, mehnat va moliyaviy imkoniyatlari o'ziga xos bo'lib, hududlarni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Investitsion faoliyat hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, hududiy iqtisodiy barqarorlik va mamlakat iqtisodiyotining umumiy o'sish sur'atlarini belgilashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, hududlar investitsion jozibadorligini oshirish faqat moliyaviy resurslarni jalb qilish bilan cheklanmay, balki hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sharoitlarini optimallashtirishni, innovatsion va texnologik imkoniyatlarni kengaytirishni ham o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda hududiy investitsion siyosatning samaradorligi mamlakatning iqtisodiy o'sishi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Hududlarning iqtisodiy imkoniyatlarini to'liq ishga solish, investitsion resurslarni oqilona taqsimlash va hududiy rivojlanish strategiyasini shakllantirish mamlakatda barqaror va uzluksiz iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Shu bois, hududlar investitsion jozibadorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, ularni rag'batlantirish mexanizmlarini aniqlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish usullarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Globallashuv sharoitida dunyo bozorlarida raqobat tobora kuchayib bormoqda, bu esa ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar shaklida jalb qilinuvchi kapital uchun raqobatning keskin tus olishini ta'minlamoqda. Shu munosabat bilan, respublika hududidagi mavjud imkoniyatlar va afzalliklardan samarali foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatga moslashgan, ixcham va samarali investitsiya siyosatini olib borish, uni strategik va amaliy jihatdan takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu siyosatning asosiy maqsadi – xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida respublika hududlarining iqtisodiy salohiyatini to'liq ishga solish, mavjud resurslardan optimal foydalanish va investitsion muhitni yaxshilash orqali mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishdir. Shu bilan birga, investitsiya siyosatini takomillashtirish faqat tashqi kapitalni jalb qilish bilan cheklanmay, balki ichki ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish, innovatsion loyihalarni rag'batlantirish va hududlar bo'yicha iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashni ham o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning ta'kidlashicha, mamlakatimizning investitsion salohiyatini to'liq namoyon etish va xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun tizimli choralar ko'rilishi zarur. Prezidentning

so'zlariga ko'ra, iqtisodiyotga sarmoya kiritishga intiladigan xorijiy investorlar uchun hududlar va tarmoqlar kesimida puxta ishlab chiqilgan investitsiya loyihalarini taqdim etish eng samarali vosita hisoblanadi. Bu yondashuv hududiy va tarmoqlararo investitsiya siyosatini strategik ravishda shakllantirish, investitsion imkoniyatlarni optimallashtirish va natijada iqtisodiy rivojlanish va barqaror o'sish ko'rsatkichlariga erishish imkonini beradi. Shu tariqa, mamlakatning investitsion muhitini yaxshilash va investorlar ishonchini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish O'zbekistonning global raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi [3].

Qulay investitsiya muhitini shakllantirmasdan va xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb etmasdan turib, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar jahon iqtisodiy hamjamiyatiga samarali va muvaffaqiyatli integratsiyalasha olmaydi. Shu munosabat bilan, O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etish jarayonini faollashtirish uchun real shart-sharoitlar yaratish maqsadida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu chora-tadbirlar asosan hududlarga investitsiyalarni yanada faol jalb etishga qaratilgan bo'lib, bugungi kunda hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish yo'lida bir qator samarali ishlar amalga oshirilgan. Shu bilan birga, hududiy investitsion faoliyatni rivojlantirishning barqaror va tizimli mexanizmlarini yaratish zarurati dolzarb hisoblanadi.

Metodlar va metodologiya. Hududiy investitsiya salohiyatini oshirish mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va hududlar o'rtasidagi rivojlanish farqlarini kamaytirish borasidagi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Investitsion faollik hududlarning resurs salohiyati, ishlab chiqarish quvvati, infratuzilma va mehnat resurslarini samarali taqsimlash bilan chambarchas bog'liq bo'lib, hududiy iqtisodiyotning barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoniga muvofiq tasdiqlangan «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» hududiy investitsiya siyosatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Ushbu strategiya hududlar iqtisodiyoti samaradorligini oshirish, innovatsion va investitsion faoliyatni rag'batlantirish hamda sarmoyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirishni o'z ichiga oladi.

Investitsiyalarni jalb qilishning asosiy yo'nalishlari sifatida yuqori renta bilan tavsiflangan va o'z-o'zini qoplash muddati qisqa bo'lgan loyihalar, shuningdek, eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar, jumladan, yoqilg'i-energetika, neft-kimyo, oltin qazib olish va paxtani qayta ishlash sanoati ajratilgan. Shu bilan birga, savdo, telekommunikatsiya, umumiy ovqatlanish, yirik shaharlarda ofis va mehmonxona binolari qurilishi hamda moliya xizmatlari kabi yo'nalishlar ham investitsion faollikni oshirishga xizmat qiluvchi samarali tarmoqlar sifatida tanlangan.

Hududiy investitsiya salohiyatini rivojlantirishning iqtisodiy vositalari tarkibida quyidagilar alohida o'rin tutadi: soliq va moliyaviy imtiyozlar, davlat kafolati ostidagi investitsiya dasturlari, shaffof litsenziyalash va ruxsatnoma mexanizmlari. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida uch yillik ko'p martalik vizalar va ularni cheklanmagan muddatga uzaytirish imkoniyati investorlarga qo'shimcha rag'bat sifatida taqdim etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida hududiy investitsiya salohiyatini tahlil qilishda analitik, statistik, iqtisodometrik va ekonometrik, ekspert baholash, indekslash va taqqoslash metodlari qo'llaniladi. Bu metodlar hududlar o'rtasidagi investitsion farqlarni aniqlash, resurslarni samarali taqsimlash va investitsion siyosatni shakllantirishga imkon beradi. Metodologik yondashuv sifatida tizimli, integratsion va interdisipliner tahlil asos qilib olingan bo'lib, hududiy siyosat, davlat dasturlari va xalqaro tajribani uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan.

Adabiyotlar sharhi. Ilmiy adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, hududiy rivojlanish va investitsiya jarayonlarini o'rganishda normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tajribalar birlashtiriladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni, rivojlanish davlat dasturlari, shuningdek, OECD va World Bank tadqiqotlari hududiy investitsion siyosatni shakllantirishda metodologik va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Hududiy investitsiya salohiyatini rivojlantirishning asosiy maqsadi - hudud iqtisodiyotini chuqurlashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, kapital samaradorligini kuchaytirish va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirishdir. Shu yo'l bilan hududlar barqaror rivojlanadi, investitsion faollik oshadi va mamlakatning umumiy investitsion jozibadorligi mustahkamlanadi.

Hududiy investitsiya salohiyatini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari va mexanizmlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, hududlar o'rtasidagi farqlarni kamaytirish, innovatsion va yuqori qo'shilgan qiymatli loyihalarni jalb etish orqali amalga oshiriladi. Ilmiy metodlar, davlat siyosati va xalqaro tajribalar birlashuvi hududiy investitsiya siyosatini samarali boshqarish va investitsion muhitni jozibador qilishga xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama. Bizning fikrimizcha, hududlarda investitsion imkoniyatlarni rivojlantirishning moliyalashtirish mexanizmi to'rt asosiy qismni o'z ichiga olgan tizim sifatida mujassamlashsa, u nafaqat yaxlit va ob'yektiv bo'ladi, balki hududiy investitsiya siyosatining samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanishni ta'minlash imkonini beradi. Shu tarzda, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish va milliy iqtisodiyotga xorijiy kapitalni jalb qilishning samarali mexanizmlari shakllantiriladi [1]:

- moliyalashtirish munosabatlari;
- moliyalashtirish muassasalari;
- moliyalashtirish tizimi;
- moliyalashtirish tartib-qoidalari.

Mamlakatimizda faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish xalqaro ekspertlar tomonidan yuqori baholangan va ularning mulohazalari ham davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning to'g'ri yo'nalishda va samarali tarzda olib borilayotganligidan dalolat beradi. Xorijiy va mahalliy ekspertlarning baholashlari O'zbekistonning investitsion muhitini yaxshilash, hududiy va tarmoqlararo investitsion siyosatni shakllantirish, shuningdek, milliy iqtisodiyotga xorijiy kapitalni jalb qilishdagi izchillik va strategik yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Shu tariqa, ekspertlar fikri va baholari mamlakatimizning iqtisodiy islohotlarini xalqaro standartlar va amaliy tajribalar asosida amalga oshirayotganligining muhim ko'rsatkichidir.

So'nggi olti yil davomida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining dinamik tahlili ularning qariyb to'rt baravarga oshganini va barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanini ko'rsatmoqda. Umumiy investitsiyalar tarkibida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan mablag'lar 228,4 trln so'mni tashkil etib, jami investitsiyalar hajmining 84,6 foiziga teng bo'ldi hamda 2021 yilga nisbatan 3,9 foiz punktga oshdi. Jalb etilgan mablag'lar hajmi 159,9 trln so'mni yoki umumiy investitsiyalarning 59,7 foizini tashkil etgan bo'lsa, investitsiyalarning 110,8 trln so'mi, ya'ni 41,9 foizi xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirildi [10].

Mazkur dasturga asosan shu yilda 233 trillion 200 mlrd. so'm, jumladan 7,1 mlrd. AQSh dollari miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan [11]. Hozirgi kunda jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar tarkibiy tuzilmasining ilmiy tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur investitsiya oqimlarining salmoqli qismi asosan eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarga jamlanmoqda. Xususan, yoqilg'i-energetika majmuasi, neft-kimyo sanoati, oltin qazib olish hamda paxtani qayta ishlash kabi strategik ahamiyatga ega sohalar xorijiy sarmoyalar uchun eng jozibador yo'nalishlardan hisoblanmoqda. Shu bilan birga, investitsiyalarning muayyan qismi o'z-o'zini qoplash muddati nisbatan qisqa bo'lgan, katta hajmdagi asosiy fondlarni talab etmaydigan va yuqori darajada rentabellikni ta'minlaydigan loyihalarga yo'naltirilmoqda. Bunday yo'nalishlar qatoriga savdo sohasi, telekommunikatsiya xizmatlari, umumiy ovqatlanish tarmog'i, yirik shaharlarda ofis va mehmonxona binolarini barpo etish, oziq-ovqat sanoati hamda moliya xizmatlari kirib, ular xorijiy investorlar uchun iqtisodiy samaradorligi va tez foyda keltirish imkoniyati bilan ajralib turadi. Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida kuzatildi - 66,7 % yoki 7679,2 trln. so'm. Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Sirdaryo viloyatida kuzatilib, 22,7 %ni yoki 2858,1 trln. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, Sirdaryo viloyatida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich - 75,8 % yoki 9529,9 trln. so'mni tashkil etdi.

Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikning mustahkamligini ta'minlashga hamda xususiylar, shu jumladan xorijiy investitsiyalar uchun respublikaning investitsiya muhitini tubdan yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. [10]

Milliy iqtisodiyotning jahon miqyosidagi mavqeini yanada mustahkamlash, uning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish hamda ilm-fanga asoslangan, yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish orqali iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangi bosqichini ta'minlash bevosita mamlakatda innovatsion faoliyatni rivojlantirish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, xorijiy davlatlar tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, davlat va xususiylar sektor ishtirokida innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va ularni samarali amalga oshirish uchun qulay institutsional, moliyaviylar hamda tashkiliylar shart-sharoitlarni yaratish alohida tarmoqlarda texnologik yutuqlarga erishishni ta'minlaydi va innovatsiyalarga asoslangan barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoniga muvofiq «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» tasdiqlangan bo'lib, ushbu hujjatda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan izchil rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, strategiyada xo'jalik yurituvchi subyektlar, korxonalar hamda tadbirkorlik tuzilmalarining innovatsion va investitsion faolligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviylar texnologiyalarni joriylar etish va raqobatbardosh ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha aniq maqsad va vazifalar tizimli ravishda shakllantirilgan. Xususan, "Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriylar qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish" [2] deb nomlangan 51-maqсадda ko'zda tutilgan asosiy yo'nalishlar korxonalar innovatsion-investitsion faolligini oshirish bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan ishlar aniq ko'rsatib qo'yilgan.

1-jadval

Investitsiya loyihalari tashqi moliyalashtirish manbalarining taqqoslanma tahlili [4]

Tashqi moliyalashtirish manbalari	Afzalliklari	Kamchiliklari
Kreditlar	Keng tarqalganligi va qarz beruvchilar korxonaning joriylar faoliyatiga aralashmasligi	Garov ta'minoti, korxonaning kredit tarixi va barqaror pul oqimlari bo'lishi shartligi
Davlat byudjeti mablag'lari	Ko'r hollarda uzoq muddatga berilishi, ayrim hollarda qaytarish sharti va foizlar yo'qligi hamda ijtimoiylar loyihalarga ham	Hajmi cheklanganligi, faqat ma'lum soha loyihalari uchun, muhim ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga yo'naltirilishi

	yo'naltirilishi	
Aksiyalarni qo'shimcha emissiyasi	Muddati cheklanmaganligi, dividendlar berilishi faqat aksionerlar kengashida hal etiladi (joriy moliyaviy natijalarga qarab)	Aksiyalarni sota olmaslik, ularni chiqarishga xarajatlarni qoplamaslik, boshqaruvni yo'qotish ehtimolining mavjudligi
Venchurli moliyalashtirish	Yangi korxonalarga qo'llash mumkin, aksiyalarni asosiy qismi loyiha tashabusskorlarida qoladi	Venchurli investor joriy faoliyatga aralashish va qarorlar qabul qilish huquqiga ega

Bular:

- Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarida to'lov-grant asosida o'qishni tashkil etish.

- Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda mavjud analoglaridan 50 foizgacha arzonlashtirilgan va sifatli, xomashyo narxiga nisbatan 2-3 baravar yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o'zlashtirish, shu jumladan umumiy qiymati 165,9 milliard so'mlik jami 195 ta loyihani amalga oshirish.

- «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi»ning "Global innovatsion indeksda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash va 2030 yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish" deb nomlangan 52-maqsadi esa yanada kengroq va strategik masalalarni hal qilishga qaratilgan, xususan:

- Global innovatsion indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo'yicha O'zbekiston pozitsiyasini yaxshilash.

- Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo'nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish va b.

Investitsiya kiritish jarayonida O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqining kamida 8500 baravariga teng miqdorda xo'jalik jamiyatlarining aksiyalari va ulushlarini sotib olish, shuningdek, xorijiy korxona tashkil etish shaklida mamlakat iqtisodiyotiga sarmoya yo'naltirgan chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga alohida imtiyozlar taqdim etilgan. Xususan, mazkur toifadagi investorlar uchun O'zbekiston Respublikasiga ko'p martalik, uch yil muddatga beriladigan vizani rasmiylashtirish imkoniyati yaratilgan bo'lib, ushbu vizaning amal qilish muddatini respublika hududidan chiqish talab etilmasdan, cheklanmagan miqdorda uzaytirish huquqi qonunchilik asosida mustahkamlab qo'yilgan. [9].

Xulosalar. O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitining jozibadorligini yanada oshirishda Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, jahon iqtisodiy hamkorligini yanada takomillashtirish,

yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan o'zaro aloqalarni tubdan kengaytirish, puxta o'ylangan va muvozanatli tashqi qarz siyosatini izchil amalga oshirish, shuningdek, jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar va kredit mablag'laridan oqilona hamda samarali foydalanishni ta'minlash vazifalaridan kelib chiqqan holda "O'zbekistonning investitsion portal" tashkil etildi. Mazkur portal mamlakatning investitsion salohiyatini xalqaro maydonda targ'ib etish, investorlar uchun zarur axborotlarni ochiq va tizimli tarzda taqdim etish hamda investitsiya jarayonlarining shaffofligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim axborot platformasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini yaxshilash maqsadida qonunchilik tizimi izchil ravishda takomillashtirib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar Qonunchilik palatasi tomonidan 2018-yil 26-iyunda qabul qilindi. Ushbu yangi tahrirdagi qonun mamlakatda investitsiyalarni iqtisodiyotning real sektoriga jalb qilishni ta'minlash, shuningdek, loyihalarni shakllantirish va amalga oshirishning butunlay yangi mexanizmini yaratish bilan ahamiyatlidir. Qonunga muvofiq, davlat investitsiya dasturlari endilikda O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlari sifatida yuritila boshladi va ular investitsiya siyosatini tizimli, shaffof va samarali amalga oshirishga xizmat qiluvchi asosiy vosita sifatida belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlari - bu uzoq muddatli istiqbolni nazarda tutgan holda tasdiqlanadigan, mamlakat iqtisodiyotining ayrim tarmoqlari va hududlarini tuzilmaviy jihatdan o'zgartirish, shuningdek, mineral xom ashyo, moliyaviy, moddiy, mehnat resurslari va boshqa mavjud resurslardan oqilona foydalanish yo'li bilan asosiy ustuvorliklar va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuasidir.

Hududlarda investitsion imkoniyatlarni oshirishning iqtisodiy asoslari va mexanizmlari hududlarning tabiiy resurs salohiyati, ishlab chiqarish quvvati, infratuzilma va mehnat resurslarining samarali taqsimlanishi bilan belgilanadi. Shuningdek, hududiy investitsiya siyosati soliq va moliyaviy imtiyozlar, davlat tomonidan kafolatlangan investitsiya dasturlari, shaffof litsenziyalash va ruxsatnoma mexanizmlari orqali mustahkamlanadi. Ushbu mexanizmlar hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsion va yuqori qo'shilgan qiymatli loyihalarni jalb etish imkonini beradi. Natijada, hududlarda barqaror iqtisodiy o'sish va sarmoyaviy faollikning ortishi ta'minlanadi, bu esa mamlakatning umumiy investitsion muhitini yaxshilashga bevosita xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida. 2019-yil 25-dekabr, O'RQ-598-son, 4-modda. // <https://lex.uz/docs/-4664142>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi». 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi - Toshkent. // Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.
4. Abduvoxidov A. va boshq. Innovatsiyalar iqtisodiyoti. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. T.: «Mumtoz so'z». - 2020.
5. Olimova N. (2024). Tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligi va uni rivojlantirish yo'llari.
6. Эргашев А.Х. (2021). Перспективы эффективного использования маркетинговых стратегий для повышения инвестиционной активности Ферганской области. *Cognitio rerum*, (7), 42.
7. Эргашев А.Х. (2019). Приоритетные направления повышения роли инвестиций в реализации и модернизации комплексной программы промышленного развития страны. In *Тенденции развития мировой торговли в XXI веке* (pp. 424-427).
8. <https://mininnovation.uz/>
9. <http://invest.gov.uz/uz/investor/sez-i-mpz/>
10. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. Toshkent 2024-y.
11. <http://uza.uz>. 2020-yil 15-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Eksport, investitsiya va mahalliyashtirishni kengaytirish" masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi.